

UO'K: 373.5.015.31:781.7(575)

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MUSIQAVIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

*Ibragimov Abdupatto Axmadjonovich*

*Namangan davlat universiteti An'anaviy xonandalik va  
cholg'u ijrochiligi kafedrasi dotsenti*

*gmail: [abdupattoibragimov424@gmail.com](mailto:abdupattoibragimov424@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida musiqaviy dunyoqarashni shakllantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari o'z aksini topgan bo'lib, unda musiqa rahbarlarining qo'shiq kuylash qoidalari va qanday uslublardan foydalanishi borasida so'z yuritilgan. Tadqiqotda musiqiy tarbiyaning shaxs kamolotidagi o'rni, bolalarda estetik did, musiqiy idrok, ritm va ohangni his etish qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, musiqaviy faoliyatning asosiy shakllari - tinglash, kuylash, musiqaga mos harakat qilish va elementar cholg'u asboblari ijro etish jarayonlarining pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqaviy dunyoqarash, fortepiano, kuylash, musiqa, ovoz, ijro, ko'nikma, tarbiya.

## METHODOLOGICAL BASIS OF FORMING A MUSICAL WORLDVIEW IN STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

**Abstract.** This article presents the results of a study aimed at developing the methodological foundations for forming musical worldview among preschool educational institution pupils. It discusses the rules of singing and the teaching methods employed by music instructors in the educational process. The research highlights the role of musical education in personal development and explains the mechanisms for fostering children's aesthetic taste, musical perception, and their ability to sense rhythm and melody. Furthermore, the pedagogical potential of the main forms of musical activity - listening, singing, movement in response to music, and performing on elementary musical instruments is thoroughly analyzed.

**Keywords:** musical worldview, piano, singing, music, voice, performance, skill, education.

## МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

**Аннотация.** В данной статье отражены результаты исследования, направленного на разработку методологических основ формирования музыкального

*мировоззрения у воспитанников дошкольных образовательных организаций. В ней рассматриваются правила вокального исполнения и методы, используемые музыкальными руководителями в процессе обучения. В исследовании раскрывается роль музыкального воспитания в становлении личности, а также механизмы развития у детей эстетического вкуса, музыкального восприятия и способности чувствовать ритм и мелодию. Кроме того, показаны педагогические возможности основных форм музыкальной деятельности - слушания, пения, музыкально-ритмических движений и исполнения на элементарных музыкальных инструментах.*

**Ключевые слова:** музыкальное мировоззрение, фортепиано, пение, музыка, голос, исполнение, навык, воспитание.

## KIRISH

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlar, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tashkil etilayotgan barcha ta'lim mashg'ulotlari jamiyatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillardir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyati bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" - deb aytgan so'zlari ta'lim tizimidagi pedagog xodimlar zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi [1]. Yoshlarning intellektual va jismoniy kamolotini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarda sifat samaradorligi ustidan doimiy nazoratni olib borish bizning asosiy vazifalarimizdan biridir. Bolalarni musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otish uchun malakavli bo'lgan, musiqani his etadigan, uni chuqur idrok etadigan musiqqa rahbari bo'lishi lozim [2].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida musiqaviy dunyoqarashni shakllantirish masalasi o'zbek pedagogika va musiqashunoslik olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqaviy tarbiya bolalarning estetik didini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatini oshirish va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi. O'zbek olimlari musiqiy tarbiyaning metodik asoslarini ishlab chiqishda bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik yondashuvlarni taklif qilgan. Jumladan, Gulnora Rahmatova bolalarda musiqqa idrokini rivojlantirishda vokal va fortepiano mashg'ulotlarining integratsiyalangan usullarini ishlab chiqqan. U bolalarni

kuylash va ritmik harakatlar orqali musiqiy dunyoqarashini shakllantirishni nazariy jihatdan asoslab bergan [3]. Shuningdek, Shuhrat Tursunov o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy musiqa merosidan foydalanishning pedagogik ahamiyatini yoritadi. U bolalarni xalq qo'shiqlari, maqom va an'anaviy cholg'u asboblari orqali tarbiyalashning samarali usullarini taklif qilgan. Bu yondashuvlar bolalarda nafaqat estetik didni, balki milliy o'zlikni anglashi va ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi [4, 5, 6].

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagog musiqa mashg'ulotlarini mazmunli tashkil etish tufayli bolalarda quvnoq kechinmalarni uyg'otish va qo'llab quvvatlashga erishadi. Shu maqsadda u musiqaviy mashg'ulotlarda bir nechta metodik usullardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodlarning asosiysi pedagogning qo'shiqni, instrumental musiqani ifodali ijro etishidir. Bundan tashqari ko'plab texnik vositalardan, jumladan: televizor, video pleyer, monitor, kompyuter kabilardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi [2].

Ta'kidlash lozimki, musiqa mashg'ulotlarida musiqa o'qituvchisining so'zi katta ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha u qo'shiq mazmunini tushuntiradi, tushuntirish ularning e'tiborini asarning asosiy obraziga qaratadi. Pedagog bolani musiqaga, ashulaga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, shu tariqa kata yoshli kishilarni qo'shig'lariga jo'r bo'lishga undaydi. Bolalarni qo'shiq mazmuniga qiziqtiradi va bular quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi [2]:

1. Dastlabki bolalar qo'shiqni butunligicha ijro etolmaydilar. Ular tovushga taqlid qiladilar, jummalarni takrorlaydilar, xolos.

2. Ularning ovozlari zaif, sozlanmagan, ayrimlari umumiy tempdan orqada qoladilar. Bolalarga qo'shiqni o'rgatishda fortepiano asbobidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. O'qituvchi fortepiano bilan tanishtirib, kuyni chalib, qo'shiqni ovozdan o'rgata boshlaydi

4. U bolalarni ma'qullab, tortinchoqlari individual kuylashga ko'proq jalb qiladi va ular bilan birgalikda kuylaydi.

5. Qo'shiq o'rganilib, bolalar kuylay boshlaganlaridan keyin pedagog vaqtida qo'shiqni aytishdan to'xtashi va ovozlariga dam berish lozim.

6. U tarbiyalanuvchilarni musiqiy jo'rligini e'tiborga olib kuylashga odatlantirishi mumkin.

*Musiqqa tinglash:* Musiqqa asarining go'zalligini idrok etish, mazmunini tushunish, yorqin ifoda vositalarini farqlash, musiqaning 2-3 naqorat qismi, shaklini mustaqil farqlay olishga, asarning kirish qismi, band va naqorat qismi, shuningdek xotimasini farqlashga o'rgatish. Musiqqa vositasida bolalarning ichki dunyosini boyitish, ularda estetik didni shakllantirish. O'zbek mumtoz va zamonaviy shuningdek, jahon mumtoz musiqasi na'munalaridan bolalarni bahramand qilish. Marsh, qo'shiq, raqs janridagi asarlarni mustaqil farqlash. Asarda berilgan obrazni musiqiy intonatsion rivojlanishini kuzata olishga o'rgatish. Dutor, rubob, qonun, tanbur kabi cholg'u asboblari ijrosida kuylarni tinglash va ovozidan farqlashga o'rgatish. Bolalarni jonli ijro bilan bir qatorda audio va tasmalarga yozilgan kuy va qo'shiqlar, diafilm, she'riyat na'munalari, badiiy so'zdan bahramand qilish. Bolalarning yoshiga mos va ularga tushunarli mazmundagi opera va balet asarlari, xalq cholg'ulari orkestri va ansambli ishtirokidagi konsertlar, san'at muzeylariga olib borish.

*Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish:* Jamoa bo'lib ijro etish malakalarini rivojlantirish bilan birga ansambl bo'lib ijro etishga o'rgatish. Ijroni baravar boshlab, birgalikda yakunlash. Kuyni mustaqil ijro etish ko'nikmasini hosil qilish. Bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni rivojlantirish.

*O'yin:* Musiqiy o'yinlarda kuylash, ansambl, bo'lib va yakka kuylashni qamrab olish. Sahna nutqi, ya'ni ifodali va aniq talaffuz qilishni va sahna harakati erkinligini shakllantirish. Ushbu maqsadda ayrim ertaklarni sahnalashtirish, musiqalashtirishga e'tibor qaratish. Harakatli o'yinlar orqali diqqat- e'tibor, chaqqonlik va ziyraklik, harakatlarni musiqaga moslash kabi sifatlar bilan birga bolalarni jismoniy rivojlantirish. «Oq terakmi, ko'k terak», «Dor o'yin», «Boylandi», shular jumlasidandir [2]. Bolalarda musiqiy ta'limiy o'yinlarga bo'lgan qiziqishni orttirish. Ushbu o'yinlarda bolalarning musiqiy bilimlariga o'rgatish, olingan bilimlarni mustahkamlash bilan birga o'yinlarda ziyraklikni rivojlantiradigan

vazifalarni qo'yish. Musiqiy ta'limiy stol o'yinlaridan «Musiqali loto», «Kayfiyatlar», «Uzun, qisqa tayoqchalar», «Notalarning uyhasi» kabilarni, og'zaki o'yinlardan «Dengizmi, irmoq», «O'rmonda», «Uch ayiq», «Barmoqlar», o'yinlarini o'ynatish mumkin.

7 yoshli bola quyidagilarni bilishi kerak [2]:

-kuylash va harakatlanishni musiqaga moslay oladi.

- tovushlarning balandlik, tembr, cho'zumlilik hususiyatlarini eshitish orqali farqlaydi.

- ma'lum raqs harakatlarini egallaydi.

- jamoa bo'lib va yakka raqsqa tusha oladi.

- o'yin, raqs va mashqlarda mimik harakatlarni aks erttiradi.

- to'rtli musiqiy o'yinlarni mustaqil tashkil eta oladi.

- bayram ertaliklarda faol ishtirok etadi.

Musiqiy- ritmik harakatlarni bajarish: Raqs harakatlarini aniq va musiqaga mos bajarish. Raqslardagi bezak elementlari bilan tanishtirish va ularni bajarishga o'rgatish: yurish, yugurish, sakrash, oldinga va yonga hakkalash kabi harakatlarga oyoq to'pillatish, chapak chalish kabi bezak elementlarini qo'shib bajarishga o'rgatish. Musiqa ostida qatorlarga saflanish, bir qator bo'lib yurish va yugurish, katta va kichik doira qurish kabi harakatlarni mustaqil bajarish. Davra qo'shiqlarining matniga mos harakatlarni musiqaga mos mustaqil bajarish va faol bo'lish.

Maktabgacha ta'lim muassasi barcha yosh guruhidagi integrallashgan mashg'ulotlar samarali hisoblanadi va yuqori natijalar beradi hamda bolalarning mahsulot faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Ular yordamida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar musiqiy - ijodiy qobiliyatlarini o'stirish bilan bo'g'liq quyidagi vazifalar ijobiy yoki samarali hal etiladi:

1. Musiqani tushunish-anglash, ritmni his etish qobiliyatlarini rivojlantirish, atrofdagi hodisalar mohiyatini terak idrok etish, go'zal tasavvurlarni tuyishlarini ta'minlash orqali bolaning musiqaga bo'lgan qiziqishini o'stirish.

2. Emosional hozirjavoblik va harakatlar ifodaliligini o'stirish.

3. Bolalarga mos jiddiy faoliyat turlarida ularning ijodiy faolligini rivojlantirish: ijro orqali obrazlar xarakterini yaratib bera olish; o'zlashtirgan raqs harakatlarini ifodalay bilish, o'zi mustaqil tarzda yangi harakatlar uyg'unligini kashf etish, kichik hajmdagi qo'shiq yoki naqoratlarini improvizasiya qilish.

4. Mustaqilligini shakllantirish, tashabbuskorlik, kundalik hayotlarida o'zlashtirilgan ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash, kuy ijro etish, raqsga tushish, hisoblash va ijodiy tafakkur yuritish.

Turli yosh guruhlarda tashkil qilinadigan integrallashgan mashg'ulotlarda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat turlari bolalarning psixologik, yosh va fiziologik xususiyatlarini to'la mos bo'lishini inobatga olinishi o'ta muhim. Masalan, kichik yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan integrallashgan mashg'ulotlarda quyidagi faoliyat turlaridan kompleks tarzda qo'llashadi;

- nutq o'stirish- ertak, she'r, qo'shiq
- jismoniy tarbiya, musiqiy - ritmik harakatlar, mashqlar

O'rta yoshdagi MTM guruhlari e'tirof etilayotgan talablar musiqa ham teatrlashtirish hisobiga yanada boyitiladi:

- musiqa bu ohang, ritm uyg'unlik- garmoniya, dinamika, intonasiya
- teatrlashtirish, drammalashtirishning ifodali vositalari: harakatlar, testlar, imoishoralar, ovoz, intonasiya, holatlar.

Katta yoshdagi MTM guruhlari o'tkaziladigan integrallashgan mashg'ulotlarda e'tirof etilayotgan talablar musiqa, tasviriy san'at, nutq o' stirish, jismoniy tarbiya hamda teatrlashtirish vositalaridan foydalaniladi. Integrallashgan mashg'ulatlarni katta guruhlarda amalga oshirishda «Moychechak» metodiga murojaat qilishimiz mumkin.

## XULOSA

Tadqiqot davomida sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, milliy va xorijiy adabiyotlar, internet saytlari bilan tanishib chiqib, quyidagi xulosaga keldim. Musiqa rahbari mashg'ulotlarini har tomonlama mazmunli tashkil etib, bolani har xil vositalar bilan musiqaga qiziqtirishi kerak. Shu o'rinda ota-onalarning ham bolalarning musiqa mashg'ulotlarida o'rni beqiyosdir. Bolaga ikki tomonlama ko'mak berilsa, undan musiqaga, qolaversa boshqa fanlarga nisbatan qiziqishi ancha ortadi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida musiqaviy dunyoqarashni shakllantirish bo'yicha quyidagi g'oyalarni ilgari surish mumkin:

*Birinchidan*, tizimda integrativ va ko'p sohalik yondashuvni amalga oshirish, ya'ni musiqa mashg'ulotlarini boshqa fanlar va faoliyatlar bilan bog'lash. Bunda bolalar musiqani nafaqat eshitadi, balki unga mos harakat, rasm chizish yoki qisqa sahna chiqish orqali ifodalaydi.

*Ikkinchidan*, milliy meros va xalq qo'shiqlarini tatbiq etish, ya'ni mashg'ulotlarda o'zbek xalq qo'shiqlari, maqom elementlari, oddiy cholg'u asboblardan foydalanish. Bunda bolalarga milliy musiqiy obrazlarni tanishtirish, kuylash va ijro etishni o'rgatish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Харина Г.В., Топоришев М.С. Роль музыкотерапии в поддержании комфортных условий жизнедеятельности человека // Научное обозрение. Педагогические науки. 2023. № 6. С. 53-57
2. Qodirjonova S.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqaviy dunyoqarashning shakllanishi. ADPI Ilmiy xabarnomasi. 2024-yil 4-son. 244-247-b.
3. Nazarov A. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. – 131 b.
4. Mutalov S. "O'zbek xalq musiqasi tarixi." – T.: Fan, 2005.
5. Rashidov M. "Mumtoz musiqa san'ati va uning o'ziga xosligi." – T.: San'at, 2012.
6. Matyoqubov Otanazar. Shashmaqom: O'zbekistonning musiqiy merosi". O'zbekiston Milliy Kutubxonasi. <https://www.natlib.uz>
7. Joseph Nye. "Madaniy diplomatiya va musiqaning roli". Harvard University Press. <https://www.hup.harvard.edu>